

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
MALAKA OSHIRISH FAKULTETI  
JAMOAT SOG'LIG'INI SAQLASH MAKTABI**

**JAMOAT SOG'LIG'INI SAQLASH MAKTABI  
TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING  
REYTING TIZIMI TO'GRISIDA**

**NIZOMI**

**TOSHKENT -2021**

**“TASDIQLAYMAN”**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Malaka oshirish fakulteti dekani  
Zakir Sodiqov

“ 12 ” 2018-yil

**JAMOAT SOG‘LIG‘INI SAQLASH MAKTABIDA TALABALAR  
BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI  
TUGRISIDA**

**N I Z O M**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash” to‘g‘risidagi Qarori, Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentyabrda №3069 qayd raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 29-sentyabrdagi 820-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarida **talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida**”gi nizom asosida ishlab chiqilgan

**I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta‘lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.
2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
  - a) talabalarda Davlat ta‘lim standartlari va malaka talablariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;
  - b) talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta‘lim standartlari ga asoslanganlik, aniqlik, xaqqoniylik, ishonchlilik va kulay shaklda baholashni ta‘minlash;
  - c) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
  - d) talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;
  - e) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma‘lum qilish;

Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabida oraliq nazorat amaliy mashg'ulotlarning oxirgi kunlarida tashkil etiladi.

yakuniy nazorat — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma shakllarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda akademiya Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Nazorat turlarini o'tkazishda xolislikni ta'minlash maqsadida talabalar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning nazorat ishlariga kafedra yoki fakultet tomonidan identifikatsiya kodi berish orqali shifrlanishi mumkin.

Oraliq baholashni o'tkazish jarayoni fakultet dekani tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan xollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi va oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

Akademiya rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi yoki o'quv-uslubiy boshqarma rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan xollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi xamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

### **III. BAXOLASH TARTIBI VA MEZONLARI**

Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning xar bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

X^r bir fan bo'yicha talabaning joriy, oraliq, yakuniy nazoratlari va semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazorat — 30 ball;

joriy va oraliq nazorat — 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan xolda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).



Fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda yakuniy nazorat ikki bosqichda (yozma ish, ogʻzaki, test sinovi yoki OTKS) oʻtkazilishi mumkin. Yakuniy nazorat ikki bosqichda oʻtkazilganda xar bir bosqichga 15 ballidan ajratiladi va xar bir bosqich 100 ballik tizimda baholanib 60 ball utish bali etib belgilanadi.

**Umummetodologik** fanlar boʻyicha joriy nazorat 50ballni, oraliq nazorat 20 ballni, yakuniy nazorat 30 ballni tashkil etadi.

Talabanning reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimiga alohida qayd qilinadigan malakaviy amaliyot, integral OTKS, fan (fanlararo) boʻyicha yakuniy davlat attestatsiyam, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi boʻyicha oʻzlashtirish darajasi — 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabanning fan boʻyicha oʻzlashtirish koʻrsatkichini nazorat qilishda kuyidagi namunaviy mezonlar (keyingi oʻrinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 91 — 100 ball uchun talabanning bilim darajasi kuyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yuritish; amalda qoʻllay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega boʻlish.

b) 76 — 90 ball uchun talabanning bilim darajasi kuyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yuritish; amalda qoʻllay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega boʻlish.

c) 60-75 ball uchun talabanning bilim darajasi kuyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega boʻlish.

d) kuyidagi xollarda talabanning bilim darajasi 0-59 ball bilan baoʻlanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega emaslik; bilmaslik.

**Jamoat sogʻligʻini saqlash maktabida fanlar boʻyicha talabalar bilimni baholashda kuyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi:**

**a) 91 — 100 ball uchun talabanning bilim darajasi kuyidagilarga javob berishi lozim:**

-Mavzu boʻyicha uz fikrini toʻlik bayon etadi, barcha berilgan savollarga toʻlik toʻgʻri javob beradi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi, ijodiy fikrlaydi, auditoriyada mavzuni muhokama qilishda faol qatnashadi. Mavzu boʻyicha

vaziyatli masalalarni yechadi, test savollariga to'lik va to'g'ri javob beradi. Erkin tasavvurga ega bo'lib, kerak bo'lganda o'qituvchi bilan uz fikrini almasha oladi.

**b) 76 — 90 ball uchun talabning bilim darajasi kuyidagilarga javob berishi lozim:**

-Mavzu bo'yicha uz fikrini yetarli darajada uz fikrini bayon etadi, barcha berilgan savollarga tug'ri javob beradi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi, ijodiy fikrlaydi, auditoriyada mavzuni muhokama qilishda qatnashadi. Berilgan uy vazifasi mavzusi bo'yicha aniq tasavvurga ega.

**c) 60-75 ball uchun talabning bilim darajasi kuyidagilarga javob berishi lozim:**

Javoblar 50% ga to'g'ri, savol mohiyatini hamma vaqt xam to'g'ri tushunmaydi, topshiriqlarni o'qituvchi yordamida bajaradi va shunda xam 2-3 ta xatoga yo'l qo'yadi.

**d) kuyidagi xollarda talabning bilim darajasi 0-59 ball bilan baholanishi mumkin:**

- 40% gacha to'g'ri javob bera oladi, javoblar aniq emas, topshiriqlarni bajarolmaydi. Berilgan uy vazifasi mavzusi bo'yicha tasavvurga ega emas, vazifa bajarilmagan.

Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

Namunaviy mezonlarga muvofiq mutaxassislik fanlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta'lim muassasalariga yetkaziladi.

Talabalarning uquv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan xolda baholanadi.

Talabning fan bo'yicha reytingi kuyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu yer da:

V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning xar biriga ajratilgan ballning 60 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning xar biriga ajratilgan ballning 60 va undan yuqori foizdagi ballni to'plagan talabalar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli xar bir nazorat turidan belgilanganq muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

#### **IV. NAZORAT TURLARINI O'TKAZISH MUDDATI**

Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat yoki o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2h mobaynida o'tkaziladi. Modul (sikl) asosida o'quv jarayoni tashkil etilgan fanlardan amaliy mashg'ulot va ma'ruzalar tugashi bilan yakuniy nazoratlar jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Talaba fan bo'yicha mustaqil ishini ushbu fan bo'yicha yakuniy nazorat belgilangan kunga kadar topshirishi shart.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan, uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'ngi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darsga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin (bahorgi semestr natijalari bo'yicha esa, talabalarning yozgi ta'tili xamda professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tilidan so'ng) qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi xamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi xamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **V. REYTING NATIJALARINI QAYD QILISH VA TAHLIL ETISH TARTIBI**

Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasi yoki talabalar reytingini hisobga olish elektron tizimining "O'quv rejasida ajratilgan soat" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "Fandan olingan baho" ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

Xar bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali xamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida talabalar e'tiboriga yetkaziladi

Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi xamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

Talabaning reytingini hisobga olish elektron tizimi joriy etilgan taqdirda talabalarning fan bo'yicha reytingi reyting qaydnomasi va ushbu tizimga qayd etiladi.

Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlarda,, to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

Talabalar umumiy reytingi xar bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning xar bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

Talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'linmada kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va TTA Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.